




**Virtual  
Conference  
2020**



**San Jose,  
California**

# **Ingenious Global Thoughts**

**An International Multidisciplinary  
Scientific Conference**

**November 29th 2020**



## **Conference Theme**

**Technology  
Humanities**

**Science  
Education**

**Management  
Social Sciences**

**[www.conferencepublication.com](http://www.conferencepublication.com)**



Sr. No.	Details of Published Manuscript	Page Number
1	<b>PRACTICAL APPROACH TO TEACHING BUSINESS RUSSIAN SPEECH IN ECONOMIC UNIVERSITIES</b> Shahnoza Muminovna Kholmatova	1-4
2	<b>PIONEER OF A NEW STYLE IN UZBEK POETRY(ABOUT VETERAN'S WORK)</b> Ahmedov Hoshim Hakimovich, Ergasheva Habiba Oral qizi	5-6
3	<b>NAMES IN ARABIC AND ENGLISH</b> Khojiakbar Nuriddinov	7-11
4	<b>CRAFT AS A NATIONAL VALUE OF UZBEKS</b> Rohat Haitova, Muharram Yunusova, Muharram Yunusova, Feruza Akhmedova, Zubaida Narzieva, Shakhnoza Juraeva	12-14
5	<b>USE OF SHORTS IN TRAINING EASTERN LANGUAGE</b> Matibaeva Razia Baltabaevna	15-16
6	<b>TRANSLATION AS ONE OF THE METHODS OF LEARNING FOREIGN LANGUAGES BY SPECIALTY</b> Yusupdzhan Sadikov	17-19
7	<b>PROJECTIVE FUNCTION OF THE TEACHER</b> Fuzailova Gavkhar Siddikovna	20-22
8	<b>CAN CONFORMAL GRAVITY MIMIC KERR BLACK HOLES</b> Xudoyberdieva Malika, Juraeva Nozim	23-24
9	<b>USE OF COMMUNICATIVE METHODS AND METHODS IN TEACHING ENGLISH</b> R.B. Yarmatov, Mahkamboyeva Shahrizoda Husan qizi	25-27
10	<b>USE OF NON-TRADITIONAL METHODS IN PRIMARY EDUCATION CLASSES</b> Nishanova Ziyoda Jorayevna	28-30
11	<b>METHODOLOGICAL ASPECTS OF MODELING COMPLEX SYSTEMS</b> M. K. Niyazimbetov	31-33
12	<b>CORRECTIVE WORK IN DETERMINING THE CHILD'S PSYCHOLOGICAL READINESS FOR SCHOOL</b> Urumbaeva Aigul Nagmetovna	34-36
13	<b>ENDOBONCHIAL SANITATION IN THE TREATMENT OF PATIENTS WITH PULMONARY ABSCESS COMPLICATED BRONCHIAL FISTULA</b> Safoev B B, Khasanov A.K, Mirsoliev Sh.G.	37-38
14	<b>CHARACTERISTICS OF PELVIC SIZE - EXTERNAL CONJUGATE AND PELVIC WIDTH INDEX IN WOMEN OF THE FIRST AND SECOND PERIODS OF ADULTHOOD USING VARIOUS CONTRACEPTIVES</b> Khamdamova M. T.	39-40
15	<b>COMMUNICATION SKILLS IMPROVEMENT AND PROBLEMS TEACHERS' ENCOUNTER WITH ESP TEACHING</b> A. Tsakanyan	41-43
16	<b>INFLUENCE OF MOLECULAR-GENETIC FACTORS ON IMMUNE INDICATORS IN MEN WITH IMPAIRED FERTILITY</b> Musakhodjayeva Diloram Abdullayevna, Yarmukhamedov Alisher Salidjanovich, Fayzullayeva Nigora Yakhayevna, Azizova Zukhra Shukhratovna, Ruzybakiyeva Malika Ruslanovna	44-46
17	<b>GLOBALIZATION PROCESSES AND EDUCATION-UPBRINGING</b> Abbosova Shokhida Turdaliyevna	47-49

---

## O‘ZBEK SHE’RIYATIDA YANGICHA USLUB KASHSHOFI (Faxriyor ijodi haqida)

**Ahmedov Hoshim Hakimovich**

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU, dotsenti

[ahmedov\\_60@list.ru](mailto:ahmedov_60@list.ru)

**Ergasheva Habiba Oral qizi**

ToshDO‘TAU 2-kurs magistri

### **Annotasiya:**

mazkur maqolada bugungi o‘zbek adabiyotida, she’riyat, nasr va publisistikada o‘z o‘rniga ega bo‘lgan iqtidorli shoir Faxriyorning “Metahikoyalar oralab” nomli kitobi tahlil qilingan. Undagi esse va maqolalar tahlilga tortilgan. Tegishli xulosalar qilingan.

### **Kalit so‘zlar:**

o‘zbek adabiyoti, Faxriyor ijodi, “Metahikoyalar oralab” kitobi, tahlil.

Hozirgi o‘zbek she’riyatida taniqli adib Faxriyorning o‘z o‘rni bor. U XX asrning 80-90- yillarida o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos uslub bilan paydo bo‘ldi. Dastlab uning moderncha she’rlari adabiy jamoatchilikda turli munosabatlar uyg‘otdi. Ozod Shrafiddinovning yozishicha “Modernizm – jo‘n hodisa emas. Gap san’atkorda, uning tafakkuri va mahoratida” [1.245-bet]. Ba’zilar bu shoir o‘zbek milliy she’riyatidan uzoq bo‘lgan notanish uslub egasi deya yoqinqiramay kutib olishdi. Lekin bir guruh she’riyat ixlosmandlari yangicha uslubdagi she’rlarni xayrixohlik bilan kutib oldi. Shundan buyon ko‘p vaqt o‘tdi. Adib she’rlar yozdi, publisistik maqolalar chiqardi, jahon adabiyotidan tarjimalar qildi. Aytish joizki, uning “Ayolg‘u”[2], “Izlam”[3] va “Geometrik bahor”[4] kabi kitoblari adabiy jarayonda muayyan qiziqish uyg‘otdi. Unga turlicha munosabatlar bildirildi. “Faxriyor saylanmasining “Ayolg‘u” deb nomlanishi ham bejiz emas. U qadim cholg‘u asbobining nomi. Sof turkiy o‘lan, ashula, kuy, ohang, ta’sirli qo‘shiq degani. Avvalo “Ayolg‘u” nomi bilan atalgan dostonni, shu saylanmadagi boshqa doston va she’rlarni o‘qisangiz, sof “modern” ko‘rinishidagi deyarli barcha asrlar qa’ridan aks-sado berib turgan qadim ayolg‘u navolarini tuyib-eshitib turasiz. Bunaqasini boshqa xalqlar adabiyotidan topolmaysiz. Qisqa qilib aytganda o‘zbek modern adabiyoti taqlidchi emas, u o‘z yo‘lidan bormoqda”[5. Umarali Normatov,247-bet]

Faxriyorning eng keyingi chiqqan kitobi – “Metahikoyalar oralab”[6]. Bunda muallifning maqolalari, esselari, intervyulari va tarjimalari joy olgan. Biz shu kitobdagi adabiy-tanqidiy maqolalarga e’tibor qaratdik. Sababi, odatda adabiy tanqid, adabiyotshunoslik adabiy jarayondan biroz orqada yuradi. Va yana ham muhim jihati shuki, badiiy asarning chinakam – haqiqiy bahosini zukko munaqqid bera oladi. Toki adabiyotga baho beruvchi salohiyatli bo‘lsagina keng kitobxonlar ommasi oldida to‘g‘ri tanlov bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda Faxriyorning bu kitobi o‘zbek adabiy hayotida muhim bir yangilik sifatida qabul qilsa arziydi.

Kitobdagi “Har bir she’r moddiylashgan vaqtdir” nomli maqolada [6, 17-bet] mashhur rus ziyolisi, adibi, Nobel mukofoti sohibi Iosif Brodskiy ijodiga chizgilar keltirilgan. Faxriyor bunda Brodskiyning individual o‘ziga xos jihatlarini bayon qiladi. Adib faoliyatining fenomenal xususiyatlaridan biri sifatida shoir she’rlarida “aytilmoqchi bo‘lgan fikrlar salmog‘i va dinamikasi o‘quvchini hayajonga soladi... Go‘yo she’r bilan suhbat yoki esse o‘rtasida tafovut yo‘qolib borayotganday”.

Boshqa bir o‘rinda sobiq rus muhojir – adibining “SSSRdan haydalishi bilan bog‘liq voqealarga vazminlik bilan munosabat bildirishi shunchalik jabr ko‘rgan jamiyatiga ham loy chaplamasligi kishini hayratga soladi” [6. 18-bet]. Bu tomoni chinakam ziyolining manaviy qiyofasi ana shunday bo‘lishi kerakligini anglatadi.

Yana bir o'rinda Brodskiyning ayrim yosh ijodkorlar faoliyatida salbiy tamoyillar rivojlanib borayotganiga munosabatini keltirib o'tadiki, bu ham barcha millat adabiyotida uchrashi mumkin bo'lgan holat aslida: "Xudoga ishonish-ishonmaslik-dan qat'i nazar, deyarli har bir rus shoiri cherkov va diniy atamalarni suiste'mol qilishga o'rganib qolgan. She'rlarida hamisha men va Xudo degan ta'kid bo'rtib ko'rinadi... Lekin adabiyotning o'z qonunlari bor. Adabiy nuqtai nazardan Xudo bilan bunday quyuq salomalik qilish o'taketgan odobsizlikdir. Oqibatda diniy- adabiy qadrsizlanish vujudga keladi"[6. 19-bet]. Faxriyor rus adibining yana bir tanqidini o'rinli keltiradiki, bu ham saboq bo'ladigan jihat: "har bir shoir mamlakatning o'lchamlaridan kelib chiqib, keng o'quvchilar ommasini mo'ljallab she'r yozish tamoyili mavjudligini, bu aksariyat shoirni aldab qo'rganini qayd etadi"[6. 20-bet]

Faxriyor "Tashbehtar shoiri" nomli maqolasida taniqli o'zbek shoiri Bahrom Ro'zimuhammad ijodiga xos xususiyatlarning ayrim jihatlari to'xtaladi."She'ning o'lchami g'alati: ham paralel, ham ketma-ket umri bor... Uni "Iso anfosi" emas, o'quvchining nigohi tiriltiradi. O'quvchining tuyg'usiga jo'r bo'lgan she'r qog'ozda pitiray boshlaydi, simurg' qushga aylanib, o'z qanotlarida yettinchi osmonga olib chiqadi"[6, 23-bet]. Shu tariqa shoir ijodining badiiy-estetik qimmatini aniqlab beradi. "Eng sodda narsalarga ham ot qidirib..." nomli maqolasida italyan postmodern shoiri Eujenio Montale ijodiga e'tibor qaratadi. "Ba'zan u yoki bu she'rga muallifning yetti uxlab tushiga kirmagan ma'no yuklashi va eng qizig'i, o'sha ham to'g'ri bo'lib chiqishi mumkin", - deya italyan shoiri ash'orlariga baho beradi.[6. 26-bet] "Katta shoir mavjud poetikani ham, estetik qarashlarni ham, til me'yorlarini ham isloh qilishga majbur. Ammo bitta sharti bor – o'sha islohot o'zini oqlashi kerak"[6. 28-bet] Shu tariqa xorij shoiri tashbehtariga baho beradi. "Gitler bahori" she'ridagi tashbehtarni misolga keltiradi: "kapalaklar quturadi, kafan bo'lib yerni qoplaydi", "kirib kelgan yoz yilning o'lib qolgan faslidan tungi izg'irinlarni haydaydi", "shahar ko'chalarida qotillar jahannam elchisi orkestr sadolari ostida odimlaydi, yer bilan yakson qilingan narsalarni "olovday chisirolovchi, izg'irinday chimchilovchi changchi simirib yuborgan"..."[6. 28-bet]

Xulosa qilib aytganda, biz shoir Faxriyorning bir necha maqolasiga to'xtalidik xolos. Shuning o'zida muallifning badiiy ijod tabiatini chuqur his qilishiga yana bir bor amin bo'ldik. Qolaversa uning chet el adabiy namunalarini ham salohiyat bilan tadqiq etishiga guvoh bo'ldik. Undan tashqari adabiy jarayon qonuniyatlariga oid kuzatishlarining ham teranligi, ilmiyligi va badiiyat muammolarini atroflicha keng tahlil qilishiga ishonch hosil qildik. Adabiyotshunos-olim Qozoqboy Yo'ldoshev qayd etishicha "Bugungi o'zbek modern she'riyatining taniqli vakili Faxriyorning asarlarini tahlil qilish milliy modern adabiyotining mohiyati borasida tasavvur uyg'otishga yetarlicha asos beradi" [7, 400-bet].

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Шарафиддинов Озод. "Ижодни англаш бахти". Т.: "ШАРҚ", 2004,- 640 б.
2. Фахриёр. "Аёлғу". Т.: "ШАРҚ", 2000. – 262 б.
3. Фахриёр. "Излам". Т.; "Академнашр". 2017. – 224 б.
4. Фахриёр. "Геометрик баҳор". Т.: "Маънавият", 2004. – 192 б.
5. Норматов Умарали. "Ижод сеҳри". Т.: "ШАРҚ", 2007. – 352 б.
6. Фахриёр. "Метаҳикоялар оралаб". Мақолалар. Эсселар. Интервьюлар. Таржималар. Тошкент. "Академнашр". 2020. – 288 б.
7. Йўлдошев Қозоқбой, Йўлдошева Муҳайё. "Бадий таҳлил асослари". Т.; "Камалак", 2016. – 464 б.